

## Yakkabog'dagi 14 – 15-asrlarga oid maqbarada qazish ishlari olib borildi

O'zbekiston Fanlar akademiyasi Milliy arxeologiya markazi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi va Xalqaro Amir Temur xayriya jamoat fondi Yakkabog' tuman muassasasi xodimlari hamkorligida Qashqadaryo viloyati, Yakkabog' tumani, "Uchtepa" va "Olaqarg'a" MFY oralig'ida "tuproqqa ko'milib borayotgan" maqbarada qazish ishlari olib borildi.



O'lchami 11x7 metr bo'lgan qazishma maydonining eng ustki o't-o'lanlar va ularning ildizi o'rnashgan qatlamning qalinligi 10 – 15 santimetrni tashkil qildi. Undan pastda 20 – 40 santimetrlik qatlamdagi uncha qattiq bo'lmagan tuproq qatlami pishiq g'ishtlarning siniqlari, oq rangdagi qir (smola, qatron. Mustahkam biriktiruvchi, yopishtiruvchi ashyo. Tarkibida alebastr, gips va boshqalar bor) qorishmasining bo'laklari va kukunlari, oq, ko'k, to'q ko'k rangda sirlangan hamda o'simliklarning tasviri tushirilgan me'moriy qoplamalari bilan qorishib ketgan. Bundan tashqari, ushbu qatlamdan kam miqdorda nafis ishlanib ko'k rangda sirlangan va sirsiz sopol idishlarining mayda bo'laklari ham tarqalgan. Undan pastda ya'ni, yerning ustki sathidan 30 – 60 santimetr chuqurlikda o'lchami 26x26x4,5-5 santimetrlik pishiq g'ishtlar tartib bilan to'shab-terib chiqilgan.



Qazishma maydonining shimoliy yarim qismining ostida 25x25x5 santimert o'lchamdagi pishiq g'ishtlarning orasiga 1 - 2 santimetr qalinlikdagi qir qorishmasi qo'yib terilgan, eni va uzunligi 4,75 metr, tarxi 12 burchakli, shifti gumbaz, pol sathidan gumbazning eng badland joyigacha 2 metr bo'lgan yer osti maqbarasi joylashgan. Uning ichidagi maqbara va uning ustidagi qurilishida ishlatilgan g'ishlar va chiqindilar (eshak suyaklari ham bor edi) tozalandi.

Maqbaraga janub tomondan, orasiga loy qo'yib (qalinligi 1 - 2 sm) pishiq g'ishtlar (o'lchami - 26x26x4,5-5 sm.) terilgan ikki pog'onali (kengligi - 1,3 m., balandligi 30 sm., birinchi zinaning eni - 30 sm., ikkinchisniki esa 40 sm.) zinadan va usti ochiq (o'z davrida yopiq bo'lgan), ichkariga tomon torayib borgan yo'lakdan (1,2 m.) o'tib, orasiga qir qo'yib pishiq g'ishtlar terilgan, shifti arka shaklida yopilgan (balandligi - 1,15 m., eni - 1,2 m., uzunligi 80 sm.) maqbara yo'lagidan kirilgan.

Maqbaraning kirish tomonidan tashqari uch tomoni o'rta qismidan eng 2,25 metr keladigan joyi 75 santimetrga kengaygan. U "mehrob" ko'rinishida bo'lib, balandligi 1,4 metrga teng. Xonaning sharq tomonidagi mehrobning yuqori qismi qulab tushgan va teshik hosil bo'lgan. Xona shiftiga g'ishtlar yoni bilan terilgan. Shiftning o'rta qismida tuynukcha bor. Maqbaraning o'rta qismida shimoldan janub tomongacha uzunligi 2,5 metr, sharqdan g'arbgga tomon kengligi 0,7 metr bo'lgan yorma (pastga qazilib, marhum qo'yilgach, ustki qismiga taxta-yog'ochlar va uning ustidan qamish yoqi shox-shabbalar qo'yib turpoq uyiladigan qabr turi) qabr o'rnashgan. Qabrning ustini maqbara poli sathi barobarida tozalash chog'ida uning ustiga qo'yilgan yog'och chirindilariga duch kelindi.





Maqbaraning o'rganilishining yana bir qiziq jihati shundaki, uning qurilishida orasiga qir qo'yilib terilgan maqbara g'ishtlarning o'lchami bilan uning kirish zinalari va ochiq yo'lagiga loy qo'yib terilgan hamda ustiga va atroflariga tahlab tushalغان g'ishtlarning o'lchami biroz farqi. Bundan tashqari kirish yo'lakda loy bilan terilgan g'ishtlar qir bilan terilgan g'ishtlar bilan o'zaro ulanmagan. Terilgan sathida ham farq bor. Bu maqbaraning biroz oldinroq qurilganligini zina, o'ylak va tashqi tomonlarda keyinroq qayta tamirlash ishlari olib borilganligini ko'rsatadi.

Yakkabog'dagi o'rganilgan maqbaraning tuzilishi, qurilishida ishlatilgan pishiq g'ishtlar, memoriy qoplamalar, sopol idishlarining parchalari uning Amir Temurning hukmronligi davrida qurilganligini ko'rsatadi. Ushbu yer osti maqbarasi Shahrisabzda joylashgan "Dor us-saodat" majmuasi tarkibidagi Sohibqiron Amir Temurning o'zi uchun qurdirib, o'g'li Jahongir Mirzonini dafn ettirgan maqbaraning tarhi tuzilishiga aynan o'xshash. Shuningdek, tekshirilgan maqbara Samarqandda joylashgan Shohizinda majmuasidagi Xo'ja Ahmad, usta Olim Nasafiy, Shodi Malik ota, Shirinbek oqa maqbaralarining ichki tomondan tarh tuzilishiga ham o'xshash. O'rganilgan maqbaradan topilgan sirlangan va bezak berilgan me'moriy qoplamalar ham Amir Temur davrida Keshdagi Oqsaroy, Samarqanddagi Ko'ksaroy, Bibixonim, Shohizinda singari me'moriy yodgorliklarnikidan farq qilmaydi. Bularning barchasi Yakkabog'dagi maqbaraning qurilish davrini 14 asrning 4-choraklari - 15-asrlar boshlarida qurilganligini, temuriylar davrida esa tamirlash ishlari olib borilganligini ko'rsatadi. Maqbara nufuzli "barlos beklaridan biri"ga tegishli bo'lgan bo'lishi mumkin. Chunki yodgorlik joylashgan hudud o'sha davrda barlos beklarining qaramog'ida bo'lgan. Barlos urug'idan bo'lgan Amir Temur ham o'rganilgan maqbaradan uncha uzoq bo'lmagan Xo'jailg'or qishlog'ida tug'ilganligi e'tirof etiladi. Bu yuqoridagi fikrga asos bo'lib hizmat qiladi.

Maqbaraning qarovsiz va tashlandiq holatga kelib qolishi temuriylar sulolasi o'rniga kelgan shayboniylar boshqaruvi davridan boshlangan bo'lishi mumkin. 20-asrning 60-yillarida topilib, ochib o'rganilgan "Dor us-saodat" ham huddi Yakkabog'dagi maqbara kabi holatda bo'lganli bu fikrga kelishga asos bo'la oladi.

Xullas, Yakkabog'dagi maqbaraning o'rganilishi Amir Temur va temuriylar davri qurilish an'analari bo'yicha jumladan, maqbaralarning qurilishi bo'yicha ta'savvur o'yg'otishga yordam beradi, maqbaralarning qurilish doirasini kengaytiradi. Bundan tashqari, O'zbekistonning "Qashqadaryo viloyati bo'yicha Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxati" da "Lahat" nomi bilan 1 - 9-asrlarga oid - deb kiritilib kelinayotgan yodgorlikning nomi va davriga tegishligini belgilashga asos bo'lib xizmat qiladi.

***Dilmurod Normurodov,***  
***O'zbekiston Fanlar akademiyasi***  
***Milliy arxeologiya markazi va***  
***Temuriylar tarixi davlat muzeyi***  
***katta ilmiy xodimi.***